

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MUSTAFAYEV DOSTON SHUXRATOVICH

**SAYYID SHARIF JURJONIYNING TEMURIYLAR DAVRI QUR’ON
ILMLARI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on History

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

Mustafayev Doston Shuxratovich

Sayyid Sharif Jurjoniyning Temuriylar davri Qur'on ilmlari rivojiga
qo'shgan hissasi..... 3

Mustafaev Doston Shukhratovich

The contribution of Sayyid Sharif Jurjani to the development of Quranic
sciences in the Timurid period..... 23

Мустафаев Достон Шухратович

Вклад Сайида Шарифа Джурджани в развитие коранических наук в
эпоху Тимуридов..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 48

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MUSTAFAYEV DOSTON SHUXRATOVICH

**SAYYID SHARIF JURJONIYNING TEMURIYLAR DAVRI QUR’ON
ILMLARI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Tar836 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya referati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iiu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Islomov Zohidjon Maxmudovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Muhammadsiddiqov Muhammadolim Muhammadroziq o‘g‘li siyosiy fanlari doktori, professor
	Lutfullayev Hamidillo Murodillayevich tarix fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar berish DSC.35/30.12.2019.Isl/T/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» may soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi 11-uy, Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440056, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№152 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi 11-uy. Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440056, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» aprel kuni tarqatildi.
(2024-yil 18 apreldagi 04-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

N.A. Muxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, tarix fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixida ulum al-Qur'on (علوم القرآن) sohasiga doir ilmlarning Qur'oni karimni to'g'ri tushunish va talqin qilishdagi o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davrida faoliyat olib borgan olimlar tafsir, qiroat, tajvidga oid asarlari bilan Qur'on ilmlari rivojiga o'ziga xos hissa qo'shganlar. Sayyid Sharif Jurjoniylar ushbu davr olimlari orasida islom ilmlarining barcha sohalarida mo'tabar manbalar yaratgani bilan ajralib turadi. Uning "Hoshiya ala al-Kashshof" (الحاشية على الكشاف), "Tarjumon al-Qur'on" (ترجمان القرآن) va "at-Ta'rifot" (التعريفات) kabi asarlarini qur'onshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish Temuriylar davri ilmiy muhitini baholash, uning rivojiga ta'sir etgan omillarni aniqlashda dolzarb hisoblanadi.

Dunyodagi islomshunoslikka ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlarida Qur'on ilmlari, xususan, o'rta asrlarda yozilgan tafsirlarni (تفاسير) aniqlash, ularning tanqidiy nashrini amalga oshirish bo'yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda Sa'duddin Taftazoniy, Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy kabi Temuriylar davri olimlarining tafsirga oid asarlari tadqiq etilib, mazkur davr tafsirshunosligiga oid tadqiqotlar yangi pog'onaga olib chiqildi. Jurjoniylarning tafsir, Qur'on lug'ati (لغات القرآن) va qur'onshunoslik atamalarini (اصطلاحات علوم القرآن) o'z ichiga olgan asarlarini ilmiy jihatdan tahlil etish mazkur tadqiqotlarning mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy merosini tadqiq etishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi. Natijada Abu Hafs Nasafiyning "Taysir fi at-tafsir", Ya'qub Charxiyning "Tafsiri Charxiy", Koshifiyning "Mavohibi Aliyya" kabi tafsir asarlari ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Bu tadqiqotlarning uzviy davomi sifatida Temuriylar davrida ilmiy faoliyat olib borgan Sayyid Sharif Jurjoniylarning "al-Kashshof" asariga yozgan hoshiyasi, Qur'on ilmlari istilohlari va Qur'on lug'atiga oid asarlarini o'rganish orqali Movarounnahrda islom ilmlari rivojini baholash hamda hozirgi kundagi dolzarb masalalarning yechimlarini topishda foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sayyid Sharif Jurjoniyning Qur‘on ilmlariga oid asarlari Sharq va G‘arb tadqiqotchilari tomonidan ko‘plab tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan.

Sharq musulmon olimlaridan: Hoji Xalifa, Muhammad ibn Ali Shavkoniy, Muhammad Bakr Isfahoniy, Taqiyuddin Tamimiy, Shamsuddin Saxoviy, Alouddin Ali Hinnaiy, shuningdek, o‘tgan asrda yashagan Abdulhay Laknaviy, Muhammad ibn Ali Dovudiy, Xayriddin Zirikliy, Odil Nuvayhiz, Ali Shavvoh Is‘hoq kabi olimlarning tabaqot yo‘nalishidagi asarlarida Sayyid Sharif Jurjoniyni hayoti, ilmiy faoliyati va Qur‘on ilmlariga oid asarlariga doir ma’lumotlar uchraydi¹.

Bu mavzudagi zamonaviy tadqiqotlarning asosiy qismini arab va turk tillarida, qisman fors tilida olib borilgan ilmiy ishlar tashkil etadi. X.Yinanç, H.Alper, E.Shahin, N.Abdulmun‘im, M.Somir, M.Shekibaniya, L.Bahmaniy kabi olimlarning tadqiqotlari Jurjoniyni hayoti va ilmiy merosini yoritib berishga qaratilgan. Turk tadqiqotchisi doktor Sadreddin Gumush Sayyid Sharif Jurjoniyni barcha asarlari qatorida Qur‘on ilmlariga oid asarlarining qisqacha tavsifini yoritgan. Shu bilan birga, tadqiqotchi Jurjoniyni hayoti va “Hoshiya ala al-Kashshof” asari haqidagi tadqiqotida olim hoshiyasining mazmuni va uslublarni ochib bergan. Marokashlik tadqiqotchi doktor Rashid bin Umar Aroziy olimning “Hoshiya ala al-Kashshof” asarining zamonaviy tanqidiy nashrini amalga oshirib, kitobning kirish qismida Jurjoniyni mazkur asari xususiyatlari va unga yozilgan hoshiyalar haqida batafsil to‘xtaladi. M.Mar‘ashliy esa Jurjoniyni “at-Ta‘rifot” asarida zikr etilgan ulum al-Qur‘on istilohlariga boshqa asarlarda kelgan istilohlarni ham ilova qilgan holda uning qayta nashrini amalga oshirgan².

G‘arb tadqiqotchilaridan K.Brokkelman, J.Van Ess, M.Hasan, O.Leman, T.Hokey kabilar Jurjoniyni hayoti va ilmiy merosiga oid ma’lumotlarni

¹ Muhammad ibn Ali Shavkoniy. Al-Badr at-tole. – Qohira, 1929. – 489 b.; Abdulhay Laknaviy. Al-Favaid al-bahiyya. – Bayrut. Nashr sanasi ko‘rsatilmagan; Hoji Xalifa Mustafu bin Abdulloh. Kashf az-zunun an asomiya al-kutub va al-funun. – Bayrut: Dor ihyo at-turoso al-arabiy, 2008; Alouddin Ali Hinnaiy. Tabaqot al-hanafiyya. – Bag‘dod: Devon al-vaqf as-sunniy, 2005; Muhammad Bakr Isfahoniy. Ravzat al-janna. Nashr etilgan joy va sanasi ko‘rsatilmagan; Xayriddin Zirikliy. Al-A‘lom. – Bayrut: Dor al-ilm lil-malayin, 2002; Odil Nuvayhiz. Mo‘jam al-mufassirin min sodr al-islam va hatta al-asr al-hazir. Nashriyot ko‘rsatilmagan, 1988; Muhammad ibn Ali Dovudiy. Tabaqot al-mufassirin. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2012; Ahmad ibn Muhammad Adnoviy. Tabaqot al-mufassiriyn. – Madina: Maktaba al-ulum va al-hikam, 1997; Dr. Ali Shavvoh Is‘hoq. Mo‘jam al-musannafot al-Qur‘an al-karim. – Riyoz: Dor ar-Rifoyn, 1984.

² M.Halil Yinanç, "Seyyid Şerif Curcani", – Istanbul: Tarihten Sesler, II/15 (1944), S. 22–23; Dr. Sadreddin Gümüş. Seyyid Şerif Curcânî. – Istanbul: Fatih yayinevi, 1985; Hulya Alper. Düşünmenin anlamı. – Istanbul: İz yayincilik, 2017; Eşref Şahin. Seyyid Şerif el-Cürcânî'nin Şerhu'l-Mevâkıf'ında varlık düşüncesi. – Ankara: Akademisen kitabevi, 2018; Nabila Abdulmun‘im, Odil Abduljabbor Somir. Dirosa fi siyrati muallif ash-Sharif al-Jurjoniyni. – Bag‘dod: Majalla al-ulum al-insaniyya, 23-son, 2012; Muhammad Abdurahmon Mar‘ashliy. Kitob at-Ta‘rifot. – Bayrut: Dor an-Nafois, 2018; Mehdi Shekibaniya, Rizo Purjevadi. Kitobshunosi Mir Sayyid Sharif Jurjoniyni. – Tehron: Ma‘orif, 19-son, 2003. – B. 134–192; Leyla Rahimi Bahmaniy. Munozaraho Mir Sayyid Sharif Jurjoniyni va Sa‘duddin Taftazoniyni. – Tehron: Oyinayi Meros, 29-son, 2006. – B. 63–84.

jamlagan³. Mazkur tadqiqotchilar orasida J.Van Essning izlanishlari qamrov jihatidan to‘liq va batafsil hisoblanadi.

O‘zbekistonda Sayyid Sharif Jurjoniyning Qur’on ilmlariga oid asarlari borasida kompleks tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, uning hayoti va ilmiy merosiga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Samarqandning sara ulamolari” asarida Sayyid Sharif Jurjoniyni haqida ma’lumotlar keltirgan. Tafsirshunos olim D.Maxsudov o‘z tadqiqoti doirasida Jurjoniyning “Hoshiya ala al-Kashshof” asari haqida muhim ma’lumotlar berib o‘tgan. M.Xayrullayev, Sh.Ziyodov, M.Qodirxonov kabi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda olimning hayoti va ilmiy merosiga oid ma’lumotlar jamlangan⁴.

Sanab o‘tilgan tadqiqotlardan farqli ravishda mazkur tadqiqotda Sayyid Sharif Jurjoniyning Samarqandda olib borgan ilmiy faoliyati batafsil ochib berilgan hamda olimning Qur’on ilmlariga oid asarlari kompleks o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasa-sining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan FZ-202002146 – «Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashning ma’rifiy, tarbiyaviy asoslarini o‘zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sayyid Sharif Jurjoniyning Temuriylar davri Qur’on ilmlari rivojiga qo‘shgan hissasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Temuriylar davrida Qur’on ilmlari rivojiga doir tadqiqotlar uslubi va ularning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish;

Sayyid Sharif Jurjoniyni asarlarini islom ilmlari sohalari bo‘yicha tasniflash; olim ilmiy merosining Sharq va G‘arbda tadqiq etilishi va ularning xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish;

XIV–XV asrlarda Movarounnahrda yozilgan Qur’on ilmlariga oid asarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

Sayyid Sharif Jurjoniyning Samarqanddagi ilmiy faoliyatini yoritish orqali uning Temuriylar davlati ilmiy hayotida tutgan o‘rnini baholash;

olimning Qur’on ilmlariga oid asarlarini kodikologik jihatdan tavsiflash;

³ Carl Brockelman. Geschichte der Arabischen Literatur. – Leiden: 1937. Volume. 2; Jozef van Ess. Die traume schulweisheit: Leben und Verk des Ali ibn Muhammad al-Jurjani. – Weisbaden: Harrassowitz Verlag, 2013; Moiz Hasan. Foundations of science in the post-classical islamic era: the philosophical, historical, and historiographical significance of Sayyid al-Sharīf al-Jurjānī’s project. Indiana, Notre Dame, 2017; Oliver Leaman. The Biographical Encyclopaedia of Islamic Philosophy. Bloomsbury Academic, 2010; Thomas Hockey et al. (eds.). The Biographical Encyclopedia of Astronomers, Springer Reference. New York: Springer, 2007, pp. 603–604.

⁴ M.M.Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001; Sh.Ziyodov, M.Qodirxonov. Samarqandlik allomalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2019; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Samarqandning sara ulamolari; – T: Hilol-Nashr, 2019; O‘rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi. – Samarqand, 2016; D.Maxsudov. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII–XV asrlar). [matn: monografiya]. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019.

“Tarjumon al-Qur’on” asarining tarkibiy tuzilishi hamda olimning Qur’on kalimalarini yoritishdagi uslubini aniqlash;

“At-Ta’rifot” asarining zamonaviy qur’onshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyatini yoritib berish;

“Hoshiya ala al-Kashshof” asarining tafsirshunoslikdagi, xususan, Zamaxshariy tafsirini tushunishdagi ahamiyatini ochib berish hamda mavzu yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Sayyid Sharif Jurjoniyning Qur’on ilmlariga oid asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Sayyid Sharif Jurjoniyning Qur’on ilmlariga oid ilmiy atamalar va mufradot al-Qur’on ma’nolarini yoritishdagi uslubini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tarixiylik, mantiqiylik, xronologik, tahlil va sintez, matnlarni kontent-analiz qilish va qiyoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

allomaning “at-Ta’rifot”da “tafsir” (تفسير) va “ta’vil” (تأويل) atamalariga bergan ta’riflari keyingi davrda yozilgan “Kashshof istilohot al-funun va al-ulum”, “al-Kulliyot”, “at-Ta’rifot va al-istilohot” kabi mo’tabar manbalarda “tafsir” rivoyatga, “ta’vil” esa Qur’on va sunnat doirasidagi ijtihodiy fikrga asoslanishi haqidagi qarashlar uchun asos bo’lib xizmat qilgani dalillangan;

Jurjoniyning “Hoshiya at-Tajrid” nomli asari ifoda uslubining yengilligi sababli asrlar davomida Usmoniylar davlati, Eron, Turkiston, Hindiston ta’lim muassasalarida darslik sifatida foydalanilib, Usmoniylar davlatida mazkur asar o’qitilgan madrasalarga “Hoshiyai Tajrid madrasalari” degan nom berilgani aniqlangan;

Jurjoniyning Qur’onni arab tili (اللغة العربية) va balog’at (علم البلاغة) qoidalari orqali sharhlash uslubini o’zidan keyingi tafsirlarga kuchli ta’sir o’tkazgani, natijada Temuriylar davri olimlaridan Abdurahmon Jomiy, Ali Qushchi asarlarida so’zlarning grammatik vazifalarini aniqlash, ularning lug’aviy hamda balog’iy ma’nolarini yoritish bilan bog’liq uslubda namoyon bo’lgani ochib berilgan;

Sayyid Sharif Jurjoniyning “Tarjumon al-Qur’on” asarida Qur’onda kelgan so’zlar (مفردات القرآن) ma’nolarini sodda ifodalar bilan talqin etish orqali Qur’on ma’nolarining oddiy xalq zehninga oson singishini ta’minlagani ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Sayyid Sharif Jurjoniyning Qur’on ilmlariga oid 7 ta asar yozgani aniqlanib, ularning kodikologik tavsifi amalga oshirilishi natijasida “at-Ta’rifot” asari mutaxassislar uchun, “Tarjumon al-Qur’on” esa oddiy xalq uchun mo’ljallangani dalillangan;

Jurjoniyning “al-Kashshof”da kelgan tushunilishi qiyin o’rinlarni Zamaxshariyning “al-Mufassal”, “al-Foiq” asarlaridan olingan misollar hamda balog’at qoidalari asosida sharhlash orqali muallifning oyatlar ta’vilidagi uslubini yaqqol ochib bergani natijasida “al-Kashshof” tafsirining yana keng tarqalishiga hissa qo’shgani asoslangan;

“Tarjumon al-Qur’on” asarida Qur’oni karimda takrorsiz kelgan so‘zlarning qariyb to‘rt dan bir qismi, ya’ni 4000 ga yaqin so‘z ma’nolari zikr etilgani, olimning shaxs va joy nomlarini hamda aholi orasida iste’molda bo‘lgan Qur’on so‘zlarini ifodalashda, qolaversa, muqattaot harflarini sharhlashda sodda va ravon uslubdan foydalangani yoritib berilgan;

Sayyid Sharif Jurjoniyning Samarqandda qariyb yigirma yilga yaqin vaqt davomida olib borgan ilmiy faoliyati atroflicha yoritilib, uning Temuriylar davri shar’iy va aqliy ilmlar rivojidadagi o‘rni yuksak ekani ta’lim dargohlarida uning arab tili (اللغة العربية), mantiq (المنطق), balog‘at (البلاغة), meros (الفرائض), hadis ilmiga (علوم الحديث) oid asarlari o‘qitilishi kabi dalillar asosida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Jurjoniyning Qur’on ilmlariga oid asarlarining Eron, AQSH, Turkiya, O‘zbekiston kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari hamda ularning zamonaviy nashrlariga tayanilgani, tadqiqot natijalarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlangani, shuningdek, ularning respublika va xalqaro ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi ilmiy nashrlarda chop etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Sayyid Sharif Jurjoniyning Movarounnahr, xususan, Temuriylar davri Qur’on ilmlari rivoji tarixida tutgan o‘rnini aniqlash orqali to‘plangan tarixiy, ijtimoiy, bio-bibliografik ma’lumotlarning o‘zbek davlatchiligi asosi bo‘lgan Temuriylar davlati ilmiy muhiti haqidagi nazariy bilimlarni boyitishda, qolaversa, mintaqada Qur’onshunoslik va tafsir ilmi rivoji tarixi bo‘yicha olib boriladigan navbatdagi ilmiy izlanishlar uchun o‘ziga xos tayanch bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida “Islomshunoslik”, “Qur’onshunoslik”, “Manbashunoslik”, “Tafsir matnlari” kabi fanlar mazmuni hamda pedagogik jarayonni yangi ma’lumotlar bilan boyitish, shuningdek, ta’lim muassasalari hamda aholi o‘rtasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar saviyasini ilmiy jihatdan oshirish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sayyid Sharif Jurjoniyning Temuriylar davri Qur’on ilmlariga qo‘shgan hissasi bo‘yicha tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

allomaning “at-Ta’rifot”da “tafsir” (تفسير) va “ta’vil” (تأويل) atamalariga bergan ta’riflari keyingi davrda yozilgan diniy istilohlarga oid “Kashshof istilohot al-funun va al-ulum”, “al-Kulliyot”, “at-Ta’rifot va al-istilohot” kabi mo‘tabar manbalarda “tafsir” rivoyatga, “ta’vil” esa Qur’on va sunnat doirasidagi ijthodiy fikrga asoslanishi haqidagi qarashlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgani xususidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekistondagi islom sivilizatsiya markazida chop etilgan “Buyuk ajdodlarimiz” nomli kitobni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekistondagi islom sivilizatsiya markazining 2024-yil 18-martdagi 01-07/49-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, “ta’vil” so‘zining mohiyati kengroq ochib berilib, mazkur tushunchani noto‘g‘ri talqin etuvchi toifalarga raddiya berishda asosli manba bo‘lib xizmat qilgan;

Jurjoniyning “Hoshiya at-Tajrid” nomli asari ifoda uslubining yengilligi sababli asrlar davomida Usmoniylar davlati, Eron, Turkiston, Hindiston ta’lim tizimida darslik sifatida keng foydalanilib, hatto Usmoniylar davlatida mazkur asar o’qitilgan madrasalarga “Hoshiyai Tajrid madrasalari” degan nom berilgani haqidagi xulosalar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining buyurtmasi asosida tayyorlangan “Samarqandlik allomalar” nomli kitob mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 4-martdagi 02/89-son ma’lumotnomasi). Natijada Sayyid Sharif Jurjoniyning o‘rta asrlar islom ilmlari rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan;

Jurjoniyning Qur’onni arab tili (اللغة العربية) va balog‘at (علم البلاغة) qoidalari orqali sharhlash uslubi o‘zidan keyingi tafsirlarga kuchli ta’sir o‘tkazgani Temuriylar davri olimlaridan Abdurahmon Jomiy, Ali Qushchi asarlarida so‘zlarning grammatik vazifalarini aniqlash, ularning lug‘aviy hamda balog‘iy ma’nolarini yoritish bilan bog‘liq uslubda namoyon bo‘lgani haqidagi ilmiy xulosalar Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning buyurtmasi asosida tayyorlangan “Islom ensiklopediyasi” kitobi mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2024-yil 28-fevraldagi 02-02/02/1/574-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Jurjoniyning Temuriylar davri tafsir sohasi rivojiga qo‘shgan hissasini asoslash imkonini bergan;

Sayyid Sharif Jurjoniyning “Tarjumon al-Qur’on” asarida Qur’onda kelgan so‘zlar (مفردات القرآن) ma’nolarini sodda ifodalar bilan talqin etish orqali Qur’on ma’nolarining oddiy xalq zehniga oson singishini ta’minlagani xususidagi ilmiy xulosalar “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatiladigan “Buyuk yurt allomalari” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-martdagi 02-31-320-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, olimning ilmiy faoliyati va ma’rifatparvarlik g‘oyalari keng xalq ommasiga yetib borishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjuman va konferensiyalarda, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Dissertatsiyadagi natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tarafidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnalda 3 ta maqola chop etilgan. Shuningdek, respublika va xalqaro konferensiya to‘plamlarida 8 ta tezis e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya xajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti aniqlangan.

Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Temuriylar davri Qur‘on ilmlarini o‘rganishdagi ilmiy-metodologik yondashuvlar tahlili”**, deb nomlangan birinchi bobining *“Temuriylar davrida Qur‘on ilmlari rivojiga doir tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati”*, deb nomlangan birinchi paragrafida Qur‘on ilmlari sohasidagi ilk ilmiy harakatlar, Temuriylar davri Qur‘on ilmlarini o‘rganishga oid tadqiqotlar tahlili yoritilgan.

Birinchildan bo‘lib Abu Ubayd Qosim ibn Sallom (vaf. 224/839) nosix va mansux ilmi haqida kitob yozgan. Keyinchalik Ali ibn Madiniy (vaf. 234/848) sababi nuzul ilmiga oid kitob tasnif etgan, tom ma‘nodagi Qur‘on ilmlarini qamrab olgan asar esa Ali ibn Ibrohim ibn Said Hufiy (vaf. 430/1038) tomonidan yozilgan *“al-Burhon fi ulum al-Qur‘on”* asari hisoblanadi⁵.

G‘arbda O‘rta asrlarda Qur‘oni karimning lotin, italyan, rus tillaridagi tarjimalari amalga oshirilganiga qaramay, qur‘onshunoslik sohasi fan sifatida XIX asrga kelib rivojlana boshlagan. G‘arb tadqiqotlarida Qur‘onni tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganish ustuvor hisoblanib, ayrim tadqiqotlar obyektivlik asosida yoritilgan.

Sharqda turk tadqiqotchilaridan Sadreddin Gumush, Chetin Kaska, O‘zjan Tabaklar, Muhammad Chechak kabi tadqiqotchilar Jurjoniyning *“Hoshiya ala al-Kashshof”*, Koshifiyning *“Mavohibi Aliyya”*, Ali Qushchining Taftazoniy tafsiriga yozgan hoshiyasi, Temuriylar davrida adabiyot mavzularida tadqiqot olib borgan bo‘lsalar, arablardan marokashlik Rashid ibn Umar Aroziy, iroqlik Ali Hikmat Fozil, misrlik Abdulfattoh Iso Barbariy, Abdulmuttolib Arba kabi tadqiqotchilar Jurjoniyy va Taftazoniyning *“al-Kashshof”* asariga yozgan hoshiyalari, Abdurahmon Jomiy tafsirini o‘rganganlar.

Zamonaviy G‘arb tadqiqotlarida Temuriylar davrida Qur‘on ilmlarining o‘rganilish xususiyatlari yoxud rivojlanish bosqichlariga oid kompleks tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Balki g‘arblik tadqiqotchilarning o‘sha davr mufassirlari va ularning asarlariga, yoxud Qur‘on tarixiga oid ilmiy ishlari orqali G‘arbdagi zamonaviy tadqiqotlar haqida umumiy xulosa qilish mumkin. Bu borada rus olimi Y.A.Rezvaning *“Коран и его мир”* (*“Qur‘on va uning olami”*), *“Введение в коранистику”* (*“Qur‘onshunoslikka kirish”*), *“Коран Усмана”* (*“Usmon Mus‘hafi”*) nomli hamda Niderlandiyaning Utrech universiteti doktori Muhsin Godarzining *“Books on exegesis (tafsīr) and Qur‘anic readings (qirā‘āt): Inspiration, intellect and the interpretation of scripture in post-classical islam”* (*“Tafsir va qiroatga oid kitoblar: Ilhom, aql va post-klassik islomda muqaddas bitiklar talqini”*) nomli tadqiqotlaridagi Temuriylar davriga oid tahlil va mulohazalar o‘rganildi.

O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar Temuriylar davrida Qur‘on ilmlari, xususan, tafsir ilmining rivojlanishi haqida to‘liq ma‘lumot berish xususiyati bilan

⁵ Qarang: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur‘on ilmlari. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – B. 11.

boshqa mintaqalardagi tadqiqotlardan farqlanadi. Tafsirshunos olim D.R.Maxsudov o‘zining “Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili (XIII–XV asrlar)” nomli tadqiqotida Amir Temur va Temuriylar davrida faoliyat yuritgan mufasssirlar haqida to‘xtalib o‘tib, o‘ndan ortiq movarounnahrlik mufasssirlar va ularning tafsir asarlari haqida batafsil ma’lumotlar bergan⁶. Tadqiqotchilar I.Usmonov va G.Saidova Ya’qub Charxiyning tafsiri ustida tadqiqotlar olib borib, naqshbandiya tariqati doirasida amalga oshirilgan XVI asrga oid turkiyga tarjima qilingan ilk tarjimalardan biri – “Tarjimai tafsiri Charxiy” asarning faksimilesini e’lon qilgan bo’lsalar, tadqiqotchi H.Lutfullayev “Husayn Voiz Koshifiyning “Mavohibi Aliyya” asari Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotiga doir muhim manba” nomli tadqiqotida Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosondagi ma’naviy hayot rivojlanishi, Alisher Navoiyning Qur’on ilmlari borasidagi faoliyati, Koshifiyning hayoti va ilmiy merosi, markaziy osiyolik olimlarning tafsirga oid asarlari tahlilini amalga oshirgan.

“Sayyid Sharif Jurjoniylarining qiyosiy-tipologik klassifikatsiyasi”, deb nomlangan ikkinchi paragrafda Jurjoniylarning hayoti va ijodi, olim asarlarining tasnifi, ularning xususiyatlari va tarqalish hududlari haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Sayyid Sharif Jurjoniylar 740/1340-yili Jurjon yaqinidagi Toku qishlog‘ida tavallud topgan. Olimning to‘liq ismi Abul Hasan Ali ibn Muhammad ibn Ali bo‘lib, sayyid nisbati unga payg‘ambar Muhammad alayhissalomga nasab jihatidan bog‘liqligi sababidan berilgan⁷. Olim tug‘ilgan va voyaga yetgan Jurjon shahrining bunday nom bilan atalishi borasida turli qarashlar mavjud bo‘lib, “Tarixu Jurjon” asarida zikr qilinishiga ko‘ra, Nuh payg‘ambarning avlodidan hisoblangan Jurjon ibn Lovuz ibn Som ushbu shaharni bunyod etgan⁸. Boshqa qarashga ko‘ra, Jurjon forscha گرگان [go‘rgon] – “bo‘rilar” so‘zining arablashgan shaklidir. Shahar geografik jihatdan Kaspiy dengizining janubi-sharqida, Eronning shimolida joylashgan⁹.

Jurjoniylar ilm yo‘lida Hirot, Anado‘lu, Qohira, Bursa, Sheroz, Samarqand shaharlariga safar qilgan. Misrda aqliy ilmlarni Muborakshohdan ta’lim olgan Jurjoniylar, naqliy ilmlarni hanafiy faqih Akmaluddin Bobartiy (vaf. 786/1384)dan ta’lim oldi. Misrda o‘tgan o‘n yillik tahsildan so‘ng 776/1374-yilda Anado‘lu shahriga yo‘l oldi. Bu yerda qisqa muddat bo‘lib, so‘ng yana o‘z vataniga qaytdi. So‘ng alloma Sa’duddin Taftazoniy (vaf. 792/1390) bilan tanishdi va uning tavsiyasiga binoan o‘sha vaqtning hokimi Shoh Shujo tomonidan Sherozdagi Dor ash-Shifo madrasasiga muddaris etib tayinlandi¹⁰. 789/1387-yilda Sherozni ishg‘ol qilgan Amir Temur Jurjoniylarni Samarqandga taklif etdi. Olim Samarqandda o‘n sakkiz yil bosh mudarris sifatida faoliyat olib bordi va ko‘plab asarlarini shu yerda yozdi.

⁶ Qarang: Maxsudov D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili. Tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020. – 362 b.

⁷ Muhammad ibn Ali Shavkoniylar. Al-Badr at-Tole. J. I. – Qohira: Dor al-kutub al-islomiy. – B. 488.

⁸ Hamza ibn Yusuf Sahmiylar. Tarixi Jurjon. – Qohira: A‘lam al-kutub, 1981. – B. 5.

⁹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.

¹⁰ Qarang: Muhammad Bakr Isfahoniylar. Ravzat al-janna. J. 3, – B. 426; Abdulhay Laknaviylar. Al-Favaid al-bahiyya. – Bayrut. – B. 134; Islam ansiklopedisi. Curcani maddesi. – Istanbul, 1940. C. 3, – S. 246.

Sayyid Sharif Jurjoniyy va uning asarlari haqida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, olim diniy va dunyoviy ilmlarga bag‘ishlangan yuzga yaqin asar yozgan. Bularning orasida bir necha sahifali risolalardan tortib, yirik hajmli asarlar ham mavjud.

Olimning kalom ilmiga oid “Sharh al-Mavoqif” asari Adududdin Ijyning kalom va falsafaga oid “al-Mavoqif” asari sharhidir. Sharhda butun kalom va falsafa bahslari tadqiq etilgan¹¹. Mazkur sharh Jurjoniyyning eng ko‘zga ko‘ringan asarlaridan biri bo‘lishi bilan birga, “al-Mavoqif”ga yozilgan sharhlarning eng mashhur va keng tarqalgani hisoblanadi. Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1886) hadis usuliga oid “al-Muxtasar al-jome’ li-ma’rifat al-hadis” asarining Jurjoniyyga tegishli ekanini isbotlagan va unga “Zafar al-amoniyy muxtasar al-Jurjoniyy” nomli sharh yozgan¹².

Jurjoniyyning yozib qoldirgan asarlari o‘sha vaqtda rivoj topgan ilmlar haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Xususan, u yashagan davrda mantiq ilmi juda rivojlangan. Bugunga qadar mantiq ilmida asosiy manbalardan hisoblangan “Hoshiya ala sharh ash-Shamsiyya” asari Najmiddin Qazviniyyning (vaf. 693/1294) “Shamsiyya” nomli asariga Qutbiddin Roziy Tahtoniyy yozgan sharhning hoshiyasi sanaladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Jurjoniyyning ushbu asari Taftazoniyyning “Sharh ash-Shamsiyya” nomli asaridan ko‘proq e’tibor va e’tirofga sazovor bo‘lgan.

Ta’kidlash lozimki, olim asarlariga yuzaki yondashmay, balki ularni kuchli tadqiqot va tahqiqot natijalariga ko‘ra yozgan. Shu sababdan, uning eng kichik risolasi ham o‘zidan keyingilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Hattoki, كلام السيد سيد الكلام – “Sayyidning so‘zi so‘zlarning sayyididir” iborasi ilm ahllari orasida zarbulmasalga aylangan.

Birinchi bobning “Zamonaviy tadqiqotlarda olim ilmiy merosining o‘rganilish xususiyatlari” nomli uchinchi paragrafida hozirgi kunga qadar Jurjoniyyning hayoti va ilmiy merosi yoritilgan bio-bibliografik asarlar, G‘arb va Sharqda, qolaversa, O‘zbekistonda olim ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar tahlili yoritilgan.

Sayyid Sharif Jurjoniyy hayoti, ilmiy faoliyati va asarlariga doir ma’lumotlar o‘rta asr olimlaridan Shamsuddin Saxoviyy (vaf. 902/1497), Alouddin Ali Hinnaiyy (vaf. 979/1572), Taqiyuddin Tamimiyy (vaf. 1010/1601), Hoji Xalifa (vaf. 1069/1659), Muhammad ibn Ali Shavkoniyy (vaf. 1250/1835), Muhammad Bakr Isfahoniyy (vaf. 1313/1896), shuningdek, o‘tgan asrda yashab ijod qilgan Abdulhay Laknaviy, Xayriddin Zirikliyy (vaf. 1396/1976) kabi olimlarning tabaqot asarlarida yoritilgan.

Jurjoniyy ilmiy merosi haqidagi tadqiqotlarni ham shartli ravishda uch guruhga bo‘lib: G‘arb, Sharq va mahalliy tadqiqotlar kesimida o‘rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Zero, olim hayoti va asarlariga oid tadqiqotlar asosan mana shu mintaqalarda amalga oshirilgan.

¹¹ Qarang: Dr. Sadreddin Gümüş. Seyyid Şerîf Curcânî. – İstanbul: Fatih yayinevi matbaası, 1985. – S. 144.

¹² Sayyid Muhammad ibn Ja’far Kattoniyy. Ar-Risola al-Mustatrafaya bayan mashhur kutub as-sunna al-musharraf. – Qohira: Maktaba al-kulliyot al-azhariyya, nashr sanasi ko‘rsatilmagan. – B. 162.

G‘arb tadqiqotlari Jurjoniyning biografiyasi va asarlarining kodikologik tahlili hamda ularning mazmuni haqidagi umumiy ma‘lumotlarni o‘rganish bilan cheklanadi. Xususan, Karl Brokkelman (vaf. 1376/1956) “Arab adabiyoti tarixi” asarida Jurjoniylar faoliyati haqida to‘xtalib o‘tib, olim asarlarining dunyo qo‘lyozma fondlarida saqlanish ko‘rsatgichlarini keltirib o‘tgan. Ammo Brokkelman Jurjoniylarga mansub bo‘lmagan bir necha asarni unga tegishli deb zikr etadi¹³. G‘arb olamida Jurjoniylar va uning ilmiy merosi haqida eng mukammal tadqiqot niderlandiyalik olim Jozef Van Ess tomonidan amalga oshirilgan. Olim o‘zining “Die traume schulweisheit: Leben und Verk des Ali ibn Muhammad al-Jurjani” (“Sxolastik hikmat orzulari: Ali ibn Muhammad al-Jurjoniylar hayoti va ijodi”) nomli kitobida Sayyid Sharif Jurjoniylar hayoti va ijodi, uning islom tafakkuri olamidagi o‘rni va ta‘siri haqida so‘z yuritadi¹⁴.

Turk tadqiqotchilari Jurjoniylar ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Ular orasida Jurjoniylar ilmiy merosini nisbatan to‘liq o‘rgangan tadqiqotchi Sadreddin Gumush o‘zining “Seyyid Şerîf Cürçânî ve arap dilindeki yeri” (“Sayyid Sharif Jurjoniylar va uning arab tilidagi o‘rni”) nomli kitobida islom olamidagi til maktablari, Jurjoniylar yashagan davrdagi ilmiy harakatlar, olimning hayoti, ilmiy merosi, arab tili va adabiyotidagi o‘rni, qolaversa, olimning barcha asarlari va ularning tavsiflari haqida batafsil ma‘lumotlar keltirgan¹⁵.

Olim ilmiy merosi haqida Misr, Marokash, Iroq, Eron, Malayziya tadqiqotchilari ham salmoqli ishlar amalga oshirgan. Mazkur tadqiqotlarda olimning “at-Ta‘rifot”, “Sharh al-Mavoqif”, “Sharh al-Faroiz as-Sirojiyya” kabi mashhur asarlari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda ham Sayyid Sharif Jurjoniylar hayoti va ilmiy merosiga doir kamsonli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (vaf. 1436/2015)ning “Samarqandning sara ulamolari”, Sh.Ziyodov va M.Qodirovlar tomonidan nashrga tayyorlangan “Samarqandlik ulamolar” va “O‘rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi”, professor U.Uvatov (vaf. 1441/2020)ning “Buyuk yurt allomalari”, M.Xayrullayev (vaf. 1425/2004)ning “Ma‘naviyat yulduzlari” nomli kitoblarida, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Islom ensiklopediyasi kabi qomuslarda umumiy ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Jurjoniylar asarlarini alohida tadqiqot doirasida o‘rganish asosan arab va turk olimlari faoliyatida kuzatiladi. G‘arb olami tadqiqotlari esa olim asarlarida keltirilgan nazariya va qarashlarni yoritishi bilan xususiyatlanadi. O‘zbek tilidagi tadqiqotlarning deyarli barchasi bio-bibliografik yo‘nalishda bo‘lib, Jurjoniylar birorta asarini to‘liq tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar deyarli uchramaydi.

Dissertatsiyaning **“Temuriylar davrida Movarounnahrda Qur‘on ilmlarining rivojlanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobining *“XIV–XV asrlarda Movarounnahrda yozilgan Qur‘on ilmlariga oid asarlar tahlili”* nomli birinchi paragrafida Temuriylar davrida Qur‘on ilmlari asosan tafsir ilmi negizida

¹³ Carl Brockelman. Geschichte der Arabischen Literatur. – Leiden: 1937. Volume. 2. – P. 217.

¹⁴ Qarang: Jozef van Ess. Die traume schulweisheit: Leben und Verk des Ali ibn Muhammad al-Jurjani. – Weisbaden: Harrassowitz Verlag, 2013.

¹⁵ Qarang: Dr. Sadreddin Gümüş. Seyyid Şerîf Cürçânî. – İstanbul: Fatih yayinevi matbaasi, 1985. – S. 182–190.

rivojlangani ochib berilgan, bu davrda yozilgan tafsir, qiroat, tajvid ilmiga oid asarlar tahlil etilgan.

XIV–XV asrlar Movarounnahr hududida XII–XIII asrlarda yozilgan Mahmud Zamaxshariyning “al-Kashshof”, Abul Barakot Nasafiyning “Madorik at-tanzil”, Qozi Bayzoviyning “Anvor at-tanzil” kabi mashhur tafsir asarlariga sharh va hoshiyalar yozish, to‘liq tafsirlardan ko‘ra ma‘lum suralar tafsiriga bag‘ishlangan asarlar yozish an‘anaga aylandi. Shu bilan birga, qiroat va rasmi mus‘haf ilmlarining keng miqyosda o‘rganilishi ham bu davrda Qur‘on ilmlarining rivojlanish xususiyatlarini ko‘rsatib beradi.

Temuriylar davrida qiroat va tajvid ilmiga oid asar yozgan kamsonli olimlardan biri Shamsuddin Muhammad Samarqandiy (vaf. 780/1378) bo‘lib, uning yetti qiroat haqidagi “al-Qiroat as-sab” (“Yetti qiroat”), “al-Mabsut fi al-qiroa as-sab” (“Yetti qiroat haqida batafsil kitob”), tajvid ilmiga oid “at-Tajrid fi at-tajvid” (“Tajvid ilmiga oid Tajrid kitobi”) nomli asarlar ta‘lif etgan. Shuningdek, mashhur qiroat va hadis olimi Muhammad ibn Jazariy (vaf. 883/1478) Movarounnahrda ilmiy faoliyati davomida qorilar tarixiga oid “G‘oya al-maharo fi az-ziyada ala al-asharo”, qiroat ilmiga oid “Toyyiba an-nashr fi qiroa al-ashr”, nahvga oid “al-Javharo”, hozirga qadar tajvid ilmining asosi bo‘lib xizmat qilib kelayotgan “al-Muqaddima fi ma yajibu ala qori al-Qur‘on an yalamah” (“Qur‘on o‘quvchi bilishi zarur bo‘lgan qoidalarga doir muqaddima”) kabi asarlarini ta‘lif etdi.

Bu davrda tafsir yozgan olimlar qatorida Sa‘duddin Taftazoniy (vaf. 792/1390), Sayyid Sharif Jurjoniy (vaf. 816/1413), Xoja Muhammad Porso (vaf. 823/1420), Ya‘qub Charxiy (vaf. 851/1447), Alouddin Ali Samarqandiy (vaf. 861/1457 y.dan keyin), Ali Qushchi (vaf. 879/1474), Abdurahmon Jomiy (vaf. 897/1492) kabilarni sanab o‘tish mumkin. Mazkur tafsirlar asosan oyatlarning grammatik tahlillari, qiroatlar va tajvidga oid qarashlarga boyligi bilan xususiyatlanadi.

Shuningdek, Temuriylar davrida rasmi mus‘haf ilmi rivojlandi. Bu davrda Markaziy Osiyoning yirik madaniy markazlarida qo‘lyozma manbalarni ko‘chirish, ularga badiiy bezaklar berish taraqqiy etib, XIV–XV asrda kitobat ishlari san‘at darajasiga ko‘tarildi. Amir Temurning buyrug‘i bilan xattot Umar Aqto tomonidan ko‘chirilgan ulkan Qur‘oni karim mus‘hafi sahifalari hozirga qadar saqlanib keladi. Amir Temurning nevarasi Ibrohim Sulton (818/1415–839/1435 yy.) kitobat san‘ati homiysi va mohir xattot bo‘lgan. Manbalarda Ibrohim Sulton beshta Qur‘on nusxalarini ko‘chirgani, shu bilan birga, shaxsiy xattotlik yozuvlarini tuzgani aytiladi.

Movarounnahrda yozilgan tafsirlar haqida umumiy xulosa qilinsa, tafsirlarda eng ko‘p so‘z yuritilgan mavzular til va balog‘at ilmlari doirasida ekani namoyon bo‘ladi. Bu esa mazkur hududlarda qadimdan tilshunoslik, xususan, arab tili qoidalarining yuqori saviyada o‘rganilganiga dalolat qiladi. Bu davrda yozilgan tafsirlarning deyarli barchasi tafsir bir-ra‘y yo‘nalishida yozilgan tafsirlar hisoblanadi.

Bobning “*Samarqand ilmiy muhitida Sayyid Sharif Jurjoniyning tutgan o‘rni*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Jurjoniyning Samarqanddagi ilmiy faoliyati, Amir Temur huzuridagi ilmiy bahslar, Movarounnahrda yozgan asarlari va bu

o'lkada olimdan tahsil olgan shogirdlar, Samarqand ilmiy muhitida olim ilmiy faoliyatining ta'siri haqida so'z yuritilgan.

789/1387-yilda Sherozni ishg'ol etgan Amir Temur Jurjoniylar bilan ko'rishgach, uni Samarqandga taklif etdi. Jurjoniylar taklifni qabul qilib, Samarqandga yo'l oldi. Olim bu shaharda o'n sakkiz yil bosh mudarris sifatida faoliyat olib bordi, ko'plab shogirdlar yetishtirdi va hayoti davomida ta'lim etgan asarlarining bir qanchasini bu yerda yozdi.

Movarounnahrda kechgan hayoti davomida Sayyid Sharif Jurjoniylar ham qator olimlar, xususan, alloma Taftazoniy (vaf. 794/1392) bilan bir qancha ilmiy bahs va munozaralar olib bordi. Hatto mazkur ilmiy munozaralarga doir alohida risolalar ham bitildi. Munozaralarda ustun kelgan Jurjoniylarning shuhrati olimlar orasida tanilishi bilan birga Amir Temur nazdida ham uning e'tibori yanada yuksaldi. Natijada Amir Temur uni Samarqanddagi birinchi darajali olim mavqeiga chiqardi¹⁶.

Bu davrda Jurjoniylar Samarqand madrasalarining bosh mudarrislaridan hisoblangan. Olim Samarqandda yashagan muddatda yuzlab mahalliy va xorijlik talabalar undan ta'lim oldilar. Bular qatorida, "Bahr al-ulum" tafsiri muallifi Alouddin Ali Samarqandiy, mashhur matematik Muso Posho ibn Muhammad Qozizoda Rumiy (vaf. 834/1430), Oyat al-Kursiy tafsirini yozgan Fathulloh Shirvoniy (vaf. 857/1453), asli eronlik Sayyid Ali Ajamiylar, Fahriddin Ajamiylar (vaf. 865/1460), mashhur tarixchi Ibn Arabshoh (vaf. 854/1450) kabi olimlarni sanab o'tish mumkin.

Sayyid Sharif Jurjoniylarning yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida Samarqandda o'tkazgan hayoti va ilmiy faoliyati Movarounnahrda olimning asarlari va ularda ilgari surgan qarashlari tarqalishiga omil bo'ldi. Uning meros ilmiga oid "Sharh al-faroiz as-sirojiyya" asari 1401-yilda, "Sharh al-Mavoqif" nomli dunyoga mashhur asari 1404-yili Samarqandda yozilgan. Shu bilan birga, "Miftoh al-ulum" asariga yozgan hoshiyasi "al-Misboh" asarining muqaddima qismida Samarqandda "al-Miftoh" asarining mohiyatiga yo'l ochuvchi asarlar mavjud emasligini ta'kidlab, shu asarga qo'l urganini aytadi. Hoji Xalifa "Kashf az-zunun"da mazkur asarning 804/1401-yilda yozilganini ta'kidlaydi¹⁷.

Umuman olganda, Jurjoniylarning Samarqanddagi qariyb yigirma yilga yaqin faoliyati o'lkada arab tili, kalom va mantiq ilmlarining yana ham keng ko'lamda o'rganilishi va ilm ahllari orasida mazkur ilmlarga doir turli qarashlarning ommalashuvida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

Olimning ilmiy safarlari haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, u Samarqandda umrining eng sermahsul davrini o'tkazdi. Amir Temurning Sayyid Sharif Jurjoniylariga ko'rsatgan ehtiromi va bildirgan ishonchi olimning Samarqanddagi samarali ilmiy faoliyatida muhim omil bo'lgan.

"*Olim Qur'on ilmlariga oid asarlarining kodikologik tavsifi*" nomli uchinchi paragrafda esa Jurjoniylarning Qur'on ilmlariga oid asarlari kodikologik tahlil etilib, olimga xato nisbat berilgan Qur'on ilmlariga oid asarlarning mualliflari aniqlashtirilgan.

¹⁶ Dr. Sadreddin Gümüŝ. Seyyid Şerif Curcânî. – Istanbul: Fatih yayinevi, 1985. – S. 92.

¹⁷ Qarang: Selim og'a kutubxonasi. Uskudar. Qo'lyozmalar: № 1036. 1b–2a; № 1051, 1b–2a.

Hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, olimning Qur'on ilmlari sohasiga kiruvchi yetti asari mavjudligi aniqlandi. Ular quyidagilar: "Hoshiya ala avail tafsir al-Kashshof an haqiq at-tanzil va uyun al-aqovil fi vujuh at-ta'vil" ("Hoshiya ala al-Kashshof"), "Hoshiya ala avail tafsir anvor at-tanzil va asror at-ta'vil" ("Hoshiya ala tafsir al-Bayzoviy"), "Tafsir az-zahrovayn" ("Tafsiri Sayyid Sharif"), "Tarjumon al-Qur'on" ("at-Tarjumon fi at-tafsir", "Tarjumoni lug'ot"), "Risola fi qovlihi ta'ala "Sanuriyhim ayatina fi al-fofi va fi anfusihim"" hamda "at-Ta'rifot" ("Ta'riflar").

Jurjoni "Hoshiya ala al-Kashshof" asarini yetarli ilm tahsil qilganidan so'ng hamda 791/1389-yilda Taftazoniy bilan olib borgan munozaralari vaqtida yoxud bundan bir muddat keyin ta'lif etgan. Chunki Jurjoni bu asarida "Ba'zilar shunday iddao qiladi" kabi ifodalar orqali Taftazoniy va o'zi o'rtasida kechgan munozaralarga ishora etadi¹⁸.

Bugungi kunda asarning yuzga yaqin qo'lyozma nusxalari O'zbekiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Misr, Tunis, AQSH kabi dunyoning bir qator davlatlaridagi kutubxonalarda saqlanadi.

Jurjoni qalamiga mansub "Tafsir az-zahrovayn" asarining nusxalari dunyo kutubxonalarida saqlanishi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Hoji Xalifa u haqda kitobining ikki o'rnida to'xtaladi. Bir o'rinda asarni "Tafsiri Sayyid Sharif" shaklida, boshqa bir o'rinda "Tafsir az-zahrovayn" shaklida zikr qiladi.

Sayyid Sharif Jurjoni Qur'on lug'atiga oid asar ta'lif etgan bo'lib, asar nomi turli manbalarda "Tarjumon al-Qur'on", "at-Tarjumon fi at-tafsir", "Tarjumoni lug'ot" kabi nomlar bilan zikr etilgan. Asarning yozilgan vaqti va joyi haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud emas. "Tarjumon al-Qur'on" asarining yigirmaga yaqin qo'lyozma nusxalari saqlanib qolgan bo'lib, ular O'zbekiston, AQSH, Turkiya, Eron kutubxonalarida saqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 48/6 inventar raqamli jamlanmada "Tarjumon al-Qur'on" asarining Odil ibn Ali tomonidan tartiblangan qo'lyozma nusxasi saqlanmoqda.

Shuningdek, "Kashf az-zunun"da "Risola fi qovlihi taala "Sanuriyhim ayatina fi al-fofi va fi anfusihim"" nomli risola Sayyid Sharif Jurjoni qalamiga mansub ekani haqida to'xtalib o'tiladi. Asar Fussilat surasi 53-oyati tafsiriga bag'ishlangan bo'lib, asarning qo'lyozma nusxalari aniqlanmagan. Oyat mazmuni va Jurjoniyaning astronomiya ilmida ham yetuk olim bo'lganidan kelib chiqib, mazkur risolada oyat dunyoviy ilmlar vositasida sharhlanganini taxmin qilish mumkin.

Islomiy ilmlar sohasida o'z davriga qadar yozilgan butun boshli asarlardan saralab olingan "at-Ta'rifot" asari ilm talabidagi kishilarga qulaylik tug'dirish maqsadida tasnif etilgan bo'lib, alifbo harflari tartibida tuzilgan. Asarning qo'lyozma nusxalari butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan. Bugunga qadar uning zamonaviy nashrlari qayta-qayta chop etilmoqda.

Shuningdek, mazkur paragrafda AQShning Prinston universiteti kutubxonasida 2390 inventar raqam bilan saqlanayotgan "Sharh mushkilat al-Kashshof" nomli

¹⁸ Sayyid Sharif Jurjoni // Rashid ibn Umar Aroziy tahqiqi. Hoshiya ala al-Kashshof. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2016. – B. 386.

hamda Sulaymoniya qo'lyozma kataloglarida Turkiyadagi Amasya Boyazid II xalq kutubxonasida 1/556 inventar raqam ostida saqlanayotgan "Sharh mufradot al-Qur'on" nomli asar Sayyid Sharif Jurjoniya xato nisbat berilgani dalillar asosida isbotlangan.

Dissertatsiyadagi "**Jurjoniyy asarlarining qur'onshunoslik sohasida tutgan o'rni**" deb nomlangan uchinchi bobning "*Tarjumon al-Qur'on*" – *Qur'on lug'atiga oid xalqchil risola*" deb atalgan birinchi paragrafida Movarounnahrda yozilgan tafsirlarning xususiyatlari, "Tarjumon al-Qur'on" asarining bibliografik ko'rsatkichlari, asarning Qur'on so'zlari ma'nolarini yoritishdagi uslubi, olimning muqattaot harflar ma'nolarini yoritishdagi yondashuvi kabi ma'lumotlar yoritilgan.

Sayyid Sharif Jurjoniyyning "Tarjumon al-Qur'on" asari haqida "Kashf az-zunun", Kofiy taxallusi bilan mashhur Abul Fath Hamd ibn Ahmadning "Kitab al-mulaxxas fi al-lug'at", Muhammad Muhsin Tehroniy (vaf. 1390/1970)ning "az-Zariy'a" kabi bibliografik manbalarda zikr qilingan¹⁹.

